# Tabiiy fanlar

## I qism

1



novda edutainment

Education Alliance Finland
CERTIFIED


2

Y.V. Malikova

# Tabiiy fanlar

## 1-sinf

## I qism



Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish Markazi huzuridagi Tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

novda

Toshkent – 2023

# Kirish so'zi

Qadrli ota-onalar, bobo-buvilar, aka-opalar!

Aziz ustoz va murabbiylar!

Bu sahifa sizlar uchun mo'ljallangan. Bizning birinchi sinfga borayotgan farzandimiz maktabga, ilmga, o'qishga mehr qo'yishini, qiziquvchan, izlanuvchan bo'lishini xohlaymiz. Buning uchun siz bilan biz unga yordam berishimiz kerak.

Bolaning vazifalarni tushunishiga yordam bering. Uy vazifasini uning o'rniga tayyorlab berishga, o'rniga rasm chizishga, savollarga o'zingiz javob berishga urinmang. Farzandingizni tushuning, sabr-toqat bilan yordam bering. Vaqti kelib, darslarini o'zi, mustaqil ravishda, tez tayyorlashga o'rganadi.

Uning darsiga, qilayotgan ishiga befarq bo'lmang, fikriga quloq soling, ilm olishiga qiziqayotganingizni ko'rsating.

Farzandingiz birinchi sinfga bordi, ilmning keng yo'liga ilk qadamlarini qo'ydi, har kuni atrofidagi olam haqida yangi-yangi, qiziqarli bilimlar, taassurotlar oladi.

Shuning uchun uning "Nima?", "Qachon?", "Qanday?", "Nega?", "Nima uchun?" kabi ko'plab savollariga birgalikda javob beraylik. Shunda u tabiatdagi turli hodisalarning sabablarini mustaqil ravishda izohlashni o'rganadi.

Yodingizda bo'lsin, bu darslikning matni birinchi sinf o'quvchisining o'qishi va tushunishiga moslangan, shuning uchun unda o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlar to'liq berilmagan bo'lishi mumkin. Darsliklarimiz bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan bolaning dunyoqarashini kengaytirishga, atrofimizdagi olam haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Agar darslikda keltirilgan ma'lumotlar sizni qoniqtirmasa, farzandingiz bilan birga mavzuni boshqa manbalardan o'rganib, izlanib ko'ring. O'zingiz uchun ajoyib yangiliklar kashf qilsangiz ajab emas.

# O'zim haqimda nimalarni bilaman?



Mening ismim Akmal.
Men 7 yoshdaman. Men
Toshkentda yashayman.



Men Azizaman.
Yoshim 7 da. Men ham
Toshkentda turaman.



Mening ismim Umida.
Men ham 7 yoshga
to'ldim. Men Buxoroda
tug'ilganman.



Mening ismim Sardor.
Men ham 7 yoshdaman.
Men Namangandan
kelganman.



Ismim Jasur.
7 yoshdaman.
Mening ona shahrim – Nukus.



Mening ismim Madina.
7 yoshdaman. Men ham
Toshkentdanman.

1. Ismingiz nima? Yoshingiz nechada?
2. Qayerliksiz?



Men insonman. Men atrofimdagi olamni oʻrganyapman. Men oʻylashni, eshitishni, gapirishni bilaman. Bilmagan narsalarimni birpasda oʻrganib olaman.



Inson bu dunyoni beshta yordamchisi orqali oʻrganadi. Bu beshta yordamchi sezgi a'zolaridir.


**Eshitish**


**Ta'm bilish**


**Koʻrish**


**Hid bilish**


**Sezish**



Sezgi a'zolarini sanab bering. Ular nima uchun kerak?
Bolalar qaysi sezgi a'zosidan foydalanyaptilar?



# Maktabga yo‘l



Men Toshkentda yashayman.
Mening manzilim: Toshkent shahri, Xorazm ko‘chasi, 35-uy, 2-xonadon.

Biz ilgari Nukusda yashardik. Toshkentga yaqinda ko‘chib keldik. Hozir Yunusobod mavzesi, 98-uy, 45-xonadonda turamiz.



Bu qanday binolar? Ular nima uchun kerak?



**Sabzavot do‘koni**



**Maktab**



**Non do‘koni**




**Kiyimlar do‘koni**



**Dorixona**



**Sartaroshxona**



# veb-saytimiz: Zokirjon.com

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

## *Zokirjon Admin bilan*

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi***

**1-sinf tabiiy fanlar I qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

Telegram kanalimiz:

**@Maktablar_uchun_hujjatlar**

## DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**
**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To'liq holda olganingizdan so'ng:**
**Faqat o'zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet veb-saytlarga joylamang.**
**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**